

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi to'rtinchi Airbus 321neo havo kemasini qabul qilib oldi

2022 17 Dekabr

Bugun, 17-dekabr kuni Uzbekistan Airways tomonidan xarid qilingan to'rtinchi Airbus 321neo havo kemasi "Toshkent" aeroportining mahalliy aviayo'nalishlar terminaliga kelib qo'ndi. Aviatsiya an'alariga muvofiq, yangi havo kemasi o't o'chirish mashinalari yordamida suv arkasi bilan kutib olindi.

UK32105 ro'yxatga olish raqamini olgan samolyot Airbus zavodlaridan biri joylashgan Gamburg shahridan (Germaniya) 6 soatu 30 daqiqa ichida to'g'ridan-to'g'ri Toshkentga yetib keldi. Havo kema Uzbekistan Airways ekipaji Murodjon G'ulomov va Argov Vladislav boshqaruvida olib kelindi.

Yangi laynerni terminalda Transport vazirligi vakillari, aviakompaniya xodimlari, ommaviy axborot vositalari vakillari, aviaspotterchilar kutib olishdi.

Uzbekistan Airways A321neo havo kemasini uzoq masofaga hamda mahalliy aviaqatnovlarda ekpluatatsiya qiladi. U 188 yo'lovchiga mo'ljallangan. Samolyotning maksimal uchish vazni 97 tonna va 6850 km bo'lgan masofagacha parvoz qilishi mumkin.

Yangi havo kemalarini xarid qilish yo'nalishlar tarmog'ini kengaytirish va yo'lovchilarni tashish hajmini oshirishga yordam beradi. Aviakompaniya havo kemalari parkini unifikatsiyalash "Uzbekistan Airways" AJ da transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" da belgilab berilgan. Uzbekistan Airways yangi yo'nalishlarni ochishni, Yevropa va Osiyo mamlakatlariga avvalgi mashhur bo'lgan yo'nalishlarni qayta tiklashni rejalashtirmoqda. Aviakompaniya havo parkini yangi A321neo havo kemalari bilan to'ldirish esa ushbu amalga oshiriladigan yo'nalishlarda yaxshi yordam beradi.

- Har bir aviakompaniya uchun asosiy ustuvor vazifa, shubhasiz, o'z aviaparkini kengaytirishdir. Uzbekistan Airways ham bu yo'nalishda izchil ishlar olib bormoqda.

Biz Airbus bilan uzoq vaqtdan beri hamkorlik qilib kelamiz va yo'lovchilarimiz manfaati uchun imzolangan istiqbolli shartnomalarni qo'llab-quvvatlaymiz. Biz ushbu kompaniyaning samolyotlaridan 20 yildan ortiq vaqtdan beri foydalanib kelmoqdamiz va yaqin kelajakda yana yangilarini sotib olish ustida ishlashni davom ettiramiz. Joriy yilning o'zida transformatsiya dasturi bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi. 2022-yilda tashilgan yo'lovchilar soni aviakompaniya tarixida rekord ko'rsatkichga yetdi va aviaparkni yangi A321neo LR havo kemalari bilan to'ldirish evaziga bu maqsadga erishdik desak, mubolag'a bo'lmaydi, - Ilhom Mahkamov "Uzbekistan Airways" AJ boshqaruv raisi.

Eslatib o'tamiz, joriy yilning noyabrida Uzbekistan Airways va Airbus o'rtasida Airbus oilasiga tegishli 12 ta yangi havo kemasini (jumladan, A320NEO va A321NEO) 2029-2030-yillarda yetkazib berish sharti bilan sotib olish bo'yicha navbatdagi shartnoma imzolangan edi.

Tadbir davomida ishtirokchilar va ommaviy axborot vositalari vakillari yangi avialayner va uning texnik xususiyatlari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Tadbirda fuqaro aviatsiyasi sohasi xodimlarining farzandlari ham ishtirok etib, ularga ushbu yangi havo transporti juda manzur bo'ldi. Ularning yuz-ko'zlaridan kelajakda uchuvchi bo'lishni yoki aviatsiya sohasida ishlashni orzu qilganini ko'rish mumkin edi.